

TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH VA TADQIQOT METODLARI

Abdurayimova Shahlo Isoqjon qizi

*University Of Business And Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Maktabgacha talim yo'nalishi 22-09 guruh talabasi*

Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

*Ilmiy raxbar University Of Business And Science nodavlat oliy ta'lim
Muassasasi Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi
orcid.org/0009-0005-5691-3196*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish yo'llari, eng avvalo, ularning oilasi, do'stlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozimligi to'g'risida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *vaziyat, tarbiya, Maktabgacha ta'lim, qiziqarli ish, oilaviy sharoit, bilim, nazoratga olinish, tarbiyasi og'ir o'quvchilar.*

МЕТОДЫ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ С УЧАЩИМИСЯ С ТЯЖЕЛЫМ ВОСПИТАНИЕМ

Аннотация: *В этой статье рассказывается о том, как добиться успеха в работе с учащимися с тяжелым воспитанием, и, прежде всего, о том, что нам нужно знать об их семье, друзьях.*

Ключевые слова: *ситуация, воспитание, дошкольное образование, интересная работа, семейная обстановка, знания, контроль, воспитанники с тяжелым воспитанием.*

METHODS OF WORK AND RESEARCH WITH STUDENTS WITH DIFFICULT UPBRINGING

Annotation: *This article talks about how to succeed in working with students with difficult upbringing, and, above all, about what we need to know about their family and friends.*

Keywords: *situation, upbringing, preschool education, interesting work, family environment, knowledge, control, pupils with difficult upbringing.*

Tarbiya- "Biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". ABDULLA AVLONIY!

Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlar vujudga kelayotganini dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikga moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir. Bolaning maktab vaqtida shakllanishida

o'qituvchi, mutaxassis pedagog xodimlar, ya'ni sinf rahbarlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli kattadir.

Tarbiya masalasiga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u orqali kelib chiqadigan zararli oqibatlar ham bugungi kunda barchamizga ayon. Bugungi texnika rivojlangan asrda esa tarbiyaga alohida e'tibor berishimiz zarur. Yosh avlodni tarbiyalash ularga to'g'ri va o'z yo'llarini topishlarida biz kattalarning o'rnimiz beqiyosdir. Xar bir bola dunyoga kelib tarbiyani eng avvalo o'z uyidan oladi. Olgan bilimlarini esa maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'paytirib o'zlariga zamin yaratishadi. Bola tarbiyasida ularga eng avvalo oila ma'suldir.

"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limda ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" shunday ekan ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz ertangi kuni qanday bo'lishi o'sib kelayotgan jajji farzandlarimizni bugungi kunda qanday ta'lim va tarbiya olishlariga bog'liqdir. Shunday ekan xar bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlar yuzaga kelayotgani dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikka moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'yan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi o'g'ir bolalarning borligi tashvishli holdir. Bolaning makta vaqtida shakllanishida o'qituvchi, mutahasis pedagog hodimlarning ro'li kattadir.

Pedagoglarning tan olishiga qaraganda bemavrid ovqatlanish, uxlash, bekorchilik, sayr qilish, ko'chada behuda yurish, bekor o'tirish, urishish, kishiga noqulaylik keltiradigan kiyimlar kiyish, xar xil xatti xarakatlar qilish, pardoz-andoz qilish ularning sevimli faoliyat turlaridandir. Bu chetga chiqishlarning paydo bo'lishiga asos bor. Oilada ota yoki onaning yo'qligi, bolaning yolg'iz ota yoki yolg'iz onaning tarbiyalashi, tashqi o'quv tarbiya muassasalari ta'siri yo'qligi bola bo'sh vaqtida biron bir faoliyat bilan shug'ullanmaydi bunday sabablardan hisoblanadi.

Shunday ekan ta'lim muassalarida tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ishlar quyidagilardan iboratdir:

1. Tarbiyasi og'ir bolaning yashash joyini nazoratga olish:
2. Voyaga yetmagan o'quvchilarni ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishini ndoimiy nazorat qilib borish:
3. Mahalla hamda Maktabda tarbiyasi og'ir bolalarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlariga zamin yaratib berish:
4. Mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish:
5. Darslarga sababsiz kelmay qolgan o'quvchilar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, ular bilan darhol profilaktik ishlarini amalga oshirish:
6. Har bir o'quvchining oilaviy sharoiti bilan birga psihik, fizik rivojlanishini kuzatib borish;

7. O'quvchilarni oilaviy sharoitini o'rganib, ularning ota-onalari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish:

8. Maktab psixalogi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir o'quvchilarning psixik holatlarini kuzatib borish:

Yuqoridagi hamkorlik ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilsa bolalar to'g'ri yo'lni topaolishlari shubhasizdir, zero "O'Z HAYOT TAJRIBASINI HAR TOMONLAMA BOYITMAGAN ODAMNING TARBIYASI- BEHUDADIR".

O'quvchi-yoshlar o'rtasida axloqiy me'yorlarga mos xulq-atvorni shakllantirishda ta'lim muassasasi, oila va mahalla o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Insonning birinchi ustozlari onasidir. Islomda "mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqlidir, degan savolga uch marotaba "Onang" deyilgandan keyingina to'rtinchi marta "Otang" deb javob berilgan. Oiladagi tarbiya muhiti bolaning individualligi uning o'qishidan tashqaridagi faoliyatlarida kitobxonlik, tabiatga, dinga va boshqalarda aniq ko'rinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki "Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas!"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kamoliddinov.M, Vaxobjonov.B —Innovatsion pedagogik texnologiyalar||. —Talqin||. Toshkent. 2010. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar amaliyoti — T.: Iste'dod, 2010.- b.

2. Усмонова, О. Н. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan fizika fanida ishlash / О. Н. Усмонова, М. И. Шокиржонова, З. Ё. Мелибоева, К. Т. Тиллабоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 48 (443). — С. 621-623. — URL: <https://moluch.ru/archive/443/97171/> (дата обращения: 19.12.2023). Бобоева, З. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 22-25.

3. Бобаева, З. М. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРЫ РАЗЛИЧНЫХ НАРОДОВ. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 66-71).

4. Бобаева, З. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. Экономика и социум, (1-1 (104)), 183-191.

5. Бобаева, З. М. РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ В ЭПОХУ ВОЗРОЖДЕНИЯ ВОСТОКА Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи, магистрант.

6. Golish L.V, Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. TDIU. Toshkent. 2010.